



## BOBUR IJODINI O`RGANISHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Ravshanjonova Sitora Jahongir qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o`zbek adabiyotining buyuk ijodkorlaridan biri Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodini integratsiya asosida o`rganishning tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan. Boburning "Boburnoma" asarida foydalanilgan maqollarning tahlili, tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr bildirilgan.

**Kalitso`zlar:** Ilm-fan, tarbiya, Z.M.Bobur, "Boburnoma", maqollar, jahon adabiyoti, ijodkorlik, tahlil.

**Kirish.** Ilm-fan, ta'lif va ishlab chiqarish o`rtasidagi o`zaro integratsiya jarayonlarini rivojlantirish dolzarb masalalardan. Jumladan, tarbiyaviy ta'lifni modernizatsiyalashda maktabgacha ta'lif tashkiloti, umumiy o`rta ta'lif, professional ta'lif va oliy ta'lif tizimlarining o`zaro integratsiya jarayonlarini bosqichma-bosqich, oddiydan-murakkabga qarab yo`lga qo'yilishi natijasida ishlab chiqarish sohalari uchun yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlashga erishiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** O`quvchilarga bilim berishda ta'lif bilan tarbiyaning uyg'unligi nimada? O`quvchilarga ta'lif berishda ta'lif muassasalarini pedagoglarining asosiy vazifalari "Ta'lif to'g'risidagi qonun", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" mazmun-mohiyatidan kelib chiqib belgilanadi. Davlat dasturini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun esa davlat va jamoat tashkilotlarining ishonchli va mustahkam hamkorligi, ta'lif muassasalarini mutaxassislar, oilalar, mahalla faollarining uzviy aloqasi amaliy natija berishi aniq. Har bir o`quvchining botinida iqtidor, qandaydir bir iste'dod bor, uni shakllantirishda esa biz pedagoglardan ziyraklik va mahorat talab qilinadi. Yoshlarning ta'lif-tarbiyasi haqida so`z borar ekan, shu o`rinda buyuk bobokalonimiz shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyati, asarlarining o`quvchilar ta'lif-tarbiyasidagi ahmiyati haqida ham to`xtalib o`tish o`rinli.

**Muhokama va natijalar.** Bobur shaxsiyatining o`zi ko`p qirrali bo`lib, hayoti davomida qilgan ishlarining o`zi biz uchun muhim darslik sifatida xizmat qiladi. Boburning bosh maqsadi bobosi Amir Temur sultanatini qayta tiklash va boshqa-rishediki, bu yo`lda u barcha kasri nafsi, o`zga niyat, intilishlari bahridan o'tib, astoydil harakat qildi va muhim natijalarga erishdi ham. Eng yaqin qarindoshlarining fitna-yu xiyonatlarini kechirdi, dushmanlari bilan sulh tuzishni ma'qul ko`rdi, suyukli egachisi Xonzodabegimni ashaddiy dushmani Shayboniyxon nikohiga kirishiga ham rozi bo`ldi, Hindiston sultonini Ibrohim Lo'diy jangda mahv etilgach, uning onasi Baydaga ko`p muruvvatlar ko`rsatib, saroyidan joy berdi. Shoh Bobur bu kabi tadbirlarini sultanat yaxlitligini asrashda muhim

# "PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



diplomatic yo'l, deb bildi. Zahiriddin Bobur o'zining davlatchilik boshqaruvida millat, qavm va qabilalar, Hindistonda esa turli-tuman kastalar orasidagi mazhabiy va diniy nizolarni imkon qadar ahillik, o'zaro tushunish va ayrim jihatlarga qisman yon berish orqali, bugungi til bilan aytganda, tolerantlik siyosatini yurgizgan.

Amerikalik tadqiqotchi Berk Boburga bergen qisqa va lo`nda tavsiflarida ulug` siyemoning hayot yo`li, davlatchilik tarixidagi xizmatlari va shaxsiyatidagi eng muhim jihatlarni muxtasar tarzda yoritishga erishgan. Muallif Boburning hukmronlik siyosati xususida shunday yozadi: "Boburshohning fikricha, fotihlik va hukmdorlik ishida yuz ming usul qo'llasa ham haq va zarur hisoblanadi. Biroq bosib olingan yerlarni, ayniqsa, bu o'lkalarni o`z sultanati tarkibiga kiritish rejalashtirilgan bo`lsa-da, u g`olib askarlar mag`lublar mulkini talon-taroj qilishiga mutlaqo yo'l qo`ymasdi". "Boburnoma" haqidagi fikrlar ham diqqatga sazovor: "Men bor haqiqatni yozdim", deydi muallif va haqiqatan ham u o`zining kamchiliklari, omadsizlikka olib kelgan noto`g`ri xatti-harakatlarini o`quvchidan yashirmaydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodini, xususan, "Boburnoma"sini o'rganganimizda, Prezidentimiz da'vatlariga e'tibor qaratmog'imiz lozim bo'ladi. Bizga ma'lumki, "Boburnoma" qomusiy asar bo'lib, undan juda ko'p ma'lumotlarni olishimiz, shuning barobarida o'sha davr haqida kerakligicha tasavvur hosil qilishimiz mumkin.

Bobur Mirzo adabiyotni teran tushungan, xalq maqollarini juda yaxshi bilgan, shu sababda bularni o'z o'mnida to'g'ri ishlata bilgan. "Boburnoma"da juda ko'p maqollar, hikmatli so'zlar ishlataligancha. Bu haqida adabiyotshunos olim V.Zohidov shunday degan edi: "Bobur ularni muvaffaqiyatli ravishda tanlaydi, predmetning mohiyati va katta ijtimoiy masalalar bilan bog'laydi. Shunday qilib, ulardan ko'pincha, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim xulosalar chiqaradi" [6; 25].

"Boburnoma"da xalq maqollaridan juda unumli foydalanganini asar mutolaasida ko'rib guvohi bo'lamiz. Jumladan, "Inonmag'il do'stingga, somon tiqar po'stingga" [2; 25], "Dushman ne demas , tushga ne kirmas", "Teng bo'limguncha to'sh" [3; 67] , "On guzarro ob burd", ( "U kechuvni suv olib ketgan" ) , "Uzrash badtar az gunoh" ("Tavbasi gunohidan yomonroq" ) [4; 57], "Qochg'on yog'i ko'p bo'lsa ham oz qovg'unchi bila chehra bo'la olmas nechukkim deb turlar: "Safi mag'lubro xusbasan dast" ("Yengilgan safga bir joy kifoyadir") , "Xotirg'a kechtikim, ul masal borkim, "gah yozdah beh, gah nuh" (Goh o'n bir yaxshi, goh to'qquz) [5; 282].

**Xulosa.** "Boburnoma"dagi maqollarni o'rganish jarayonida biz xalqimiz ma'naviyati sarchashmasidan yana bir bora bahramand bo'lamiz. Shuni alohida ta'kidlashimiz kerakki, Bobur ijodini o'rganish o`quvchilar tarbiyasida muhim ahamiyatga molikdir.



# "PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019 dagi "O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.
2. Z.M.Bobur. "Boburnoma". Toshkent. 1960. 25-bet.
3. Z.M.Bobur. "Boburnoma". Toshkent. 1989. 67-bet.
4. Z.M.Bobur. "Boburnoma". Toshkent. 1989. 57-bet.
5. Z.M.Bobur. "Boburnoma". Toshkent. 1989. 282-bet.
6. V.Zohidov. Boburning faoliyati va adabiy-ilmiy merosi. "Boburnoma". - T.1960.-B.25

